

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR BO'YICHA TAKLIFLAR

Mansurova Shoxsanamxon Ziyodjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida gender tengligi sohasidagi so'nggi islohotlarni tahlil qilish va xalqaro standartlar asosida yangi strategik yo'nalishlarni belgilash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqotda CEDAW konvensiyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro hujjatlar talablarini inobatga olgan holda, O'zbekistondagi gender tengligi siyosatining hozirgi holati baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakat gender tengligi sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, instituttsional mexanizmlarni yanada mustahkamlash va ta'lim tizimini rivojlantirish zarur. Tadqiqot doirasida "Ayollar liderligi akademiyasi" tashkil etish bo'yicha amaliy taklif ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, instituttsional islohotlar, xalqaro standartlar, ayollar liderligi akademiyasi, O'zbekiston, Skandinaviya.

Kirish

Zamonaviy dunyoda gender tengligi nafaqat inson huquqlarining muhim tarkibiy qismi sifatida, balki barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida tan olinmoqda. Xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ko'plab hujjatlar, jumladan, Ayollarga qarshi barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi konventsiya (CEDAW) va Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) gender tengligini ta'minlashning ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar dasturini amalga oshirish jarayonida gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. 2030-yilga qadar Gender strategiyasining qabul qilinishi, yangi Mehnat kodeksining tasdiqlanishi va jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar bu sohadagi muhim yutuqlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar doirasida gender tenglik tamoyilini amaliyotga joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Konstitutsiyamizning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"¹ deb mustahkamlangan tamoyil gender tenglikni ta'minlashning asosiy konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. 58-modda.

imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"²gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni gender tenglikni ta'minlashning yangi huquqiy asoslarini yaratdi. Ushbu qonun gender tenglik siyosatining huquqiy mexanizmlarini belgilab berish bilan birga, davlat organlarida ayollarning ishtiroki ko'rsatkichlarini oshirish, gender byudjetlashni joriy etish kabi amaliy vositalarni ham nazarda tutadi.

2021-yil 28-maydan kuchga kirgan "Gender tengligini ta'minlash strategiyasi (2020-2030 yillar)"³ mamlakat miqyosida gender siyosatini samarali amalga oshirish uchun kompleks chora-tadbirlar tizimini belgilagan. Strategiyada davlat boshqaruvida gender muvozanatni ta'minlash, ayollarning rahbarlik pozitsiyalarida ishtiroki ko'rsatkichlarini oshirish, gender statistikasini rivojlantirish kabi vazifalar ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etilgan. 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"⁴(2022-2026 yillar) to'g'risidagi PF-60-son Farmoni ham gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalarini mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish dasturi doirasida ko'rib chiqadi.

Biroq, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlash faqat qonunchilik o'zgarishlari bilan cheklanmaydi, balki keng qamrovli institutsional islohotlar va jamiyat ongini o'zgartirishga qaratilgan sistemli yondashuvni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan O'zbekistonda gender tengligi strategiyasini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot aralash metodologiya asosida amalga oshirildi. Nazariy qismda gender tengligi nazariyasi, xalqaro huquq va davlat siyosati sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Empirik ma'lumotlar uchun Jahon Banki, BMT ayollari tashkiloti (UN Women), Xalqaro Mehnat Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro institutlar hisobotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodi qo'llanildi, bu orqali O'zbekiston gender siyosati xalqaro standartlar bilan solishtirildi. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar tahlili va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar 2022-2024 yillar oralig'idagi rasmiy hisobotlar va akademik manbalardan olindi.

Natijalar va muhokama

O'zbekiston gender tengligi sohasidagi so'nggi islohotlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi. Jahon Bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida O'zbekiston 2024-yilda eng ko'p yaxshilanish ko'rsatgan beshta mamlakatdan biri deb

² O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 300-son qarori, 05.03.2020 y. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2020 y., 09/20/300/0302-son.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.

tan olindi⁵. Bu yutuq davlat tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli qonunchilik islohotlarining natijasidir.

2022-yilda qabul qilingan yangi Mehnat kodeksi ayollar uchun teng ish haqi ta'minlash va ayollar mehnati uchun mavjud cheklavlarni bekor qilish bo'yicha muhim qadamlar o'z ichiga oldi. Jinoyat kodeksiga 2023-yilda kiritilgan o'zgarishlar oilaviy zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni belgiladi, bu gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi kurashishda muhim yutuq hisoblanadi.

Parlamentdagi ayollar vakilligining o'sishi ham sezilarli. Qonunchilik palatasidagi 150 deputatdan 47 tasi ayollar bo'lib, bu 33,6 foizni tashkil etadi. UN Women ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil fevral holatiga ko'ra parlamentdagi ayollar ulushi 34,6 foizni tashkil etdi. Biroq, bu ko'rsatkich xalqaro standartlarga ko'ra hali ham yetarli emas.

UN Women ning O'zbekistonda rasmiy vakolatxonasining ochilishi 2024-yil may oyida amalga oshirildi, bu gender tengligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayon O'zbekistonning gender tengligi masalalarida xalqaro standartlarga muvofiq islohotlar o'tkazish jarayonida qo'shimcha resurs va ekspert yordamiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan gender yo'nalishli byudjetlash dasturi 2024-yil oktyabr oyida boshlandi. Bu dastur 30 nafar davlat xizmatchisining salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, davlat byudjeti rejalashtirish jarayonida gender jihatlarini hisobga olish tizimining joriy etilishiga xizmat qiladi.

CEDAW konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ham muhim qadamlar qo'ydi. Mamlakatning oltinchi milliy hisoboti 2022-yil fevral oyida taqdim etildi⁶, ammo xalqaro ekspertlar tomonidan bir qator kamchiliklar qayd etildi.

Jahon Banki baholashiga ko'ra, agar ayollar erkaklar bilan teng darajada mehnat faoliyatida ishtirok etsalar, O'zbekistonning milliy daromadi 29 foizga oshishi mumkin edi⁷. Bu ma'lumot mamlakatda gender tengsizligining iqtisodiy jihatdan qanchalik katta yo'qotishlarga olib kelayotganini ko'rsatadi.

Gender statistikasi va monitoring tizimlarining zaifligi ham muhim muammo hisoblanadi. UN Women ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarning 66,7 foizi xalqaro standartlarga mos keladi, bu esa qo'shimcha ishlarni talab qiladi.

Jamiyatda mavjud gender stereotiplari ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishida to'siq bo'lib qolmoqda. Rahbarlik pozitsiyalarida ayollar ulushi hali ham

⁵ World Bank. (2024). Women, Business and the Law 2024: Uzbekistan Country Assessment. Washington: World Bank Group.

⁶ Government of Uzbekistan. (2022). Sixth Periodic Report to CEDAW Committee. CEDAW/C/UZB/6.

⁷ World Bank. (2024). Uzbekistan Country Gender Assessment 2024. Washington: World Bank Group.

past darajada bo'lib, bu holat gender tengligiga erishishda muhim qiyinchilik yaratmoqda.

Skandinaviya davlatlari gender tengligi sohasida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada parlament tarkibida ayollar ulushi 44-48 foiz oralig'ida bo'lib, bu ularning gender tengligi siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu mamlakatlar tajribasida ayollar liderligini rivojlantirish uchun maxsus ta'lim dasturlari muhim o'rin tutadi.

Kanada va Avstraliyada gender yo'nalishli byudjetlash tizimi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu tajriba O'zbekistonda davlat byudjeti rejalashtirish jarayonida gender jihatlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Institutsional islohotlar bo'yicha takliflar

O'zbekistonda gender tengligi strategiyasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi institutsional islohotlar amalga oshirilishi taklif etiladi:

Gender tengligi bo'yicha maxsus davlat organi yoki departamentining faoliyatini kuchaytirish zarur. Ushbu tuzilma gender tengligini mainstream qilish, monitoring va baholash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalarni bajarishi kerak. Xalqaro amaliyotda bunday maxsus tuzilmalarning mavjudligi gender siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Gender statistikasi va monitoring tizimlarini rivojlantirish gender siyosatining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-chi maqsadi (SDG-5) bo'yicha O'zbekistonning bajarilishi gender tengligi sohasidagi xalqaro majburiyatlarni baholash uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlarining rolini kuchaytirish ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Gender tengligini ta'minlashda civil jamiyat institutlarining faol ishtiroki siyosatning samaradorligini oshiradi. Ayollar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, gender tadqiqotlar markazlari va gender ta'limi institutlarining rivojlantirilishi gender siyosatining ijtimoiy bazasini kengaytiradi.

Yuqorida tahlil qilingan muammolar va xalqaro tajriba asosida "Ayollar liderligi akademiyasi" tashkil etish loyihasini taklif qilamiz. Ushbu loyiha ayollarning rahbarlik salohiyatini rivojlantirish va gender tengligini ta'minlash maqsadida maxsus ta'lim muassasasi yaratishni ko'zda tutadi.

Akademiya tuzilishi va boshqaruv tizimi zamonaviy ta'lim standartlari asosida tashkil etiladi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida faoliyat yuritadigan akademiya Toshkentda bosh ofis va barcha viloyatlarda filiallar tarmog'iga ega bo'ladi.

Ta'lim dasturlari turli yo'nalishlarni qamrab oladi: rahbarlik asoslari, strategik rejalashtirish va boshqaruv, muzokaralar san'ati, jamoatchilik bilan aloqa ko'nikmalar,

moliyaviy savodxonlik va biznes asoslari. Har bir dastur amaliy mashg'ulotlar bilan birlashtirilgan nazariy bilimlar asosida tuziladi.

Mentorlik tizimi akademiyaning eng kuchli jihatlaridan biri bo'ladi. Tajribali ayol rahbarlar yosh kadrlar bilan ishlash orqali o'z bilim va tajribalarini ulashadi. Bu tizim ayollarning professional rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi va gender tengligi g'oyalarini jamiyatga singdiradi.

Akademiyaning moliyalashtirish tizimi diversifikatsiya qilingan bo'lib, davlat byudjeti (40%), xalqaro grantlar (35%), xususiy sektor homiyligi (20%) va o'z daromadlarini (5%) o'z ichiga oladi. Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik akademiyaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot faoliyati ham akademiyaning muhim yo'nalishi bo'ladi. Gender tengligi va ayollar liderligi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar natijasida tayyorlangan hisobotlar davlat organlariga taqdim etiladi va siyosat ishlab chiqishda foydalaniladi.

Xulosa

O'zbekiston gender tengligi sohasida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishdi. 2030-yilga qadar Gender strategiyasining qabul qilinishi, yangi Mehnat kodeksi va jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar muhim qadamlar hisoblanadi. UN Women vakolatxonasining ochilishi va xalqaro hamkorlikning kuchayishi gender tengligi siyosatini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi.

Biroq, hali ham hal etilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Gender stereotiplarini bartaraf etish, ayollarning rahbarlik pozitsiyalaridagi vakilligini oshirish, gender statistikasi va monitoring tizimlarini rivojlantirish kabi masalalar davom ettirilishi zarur.

"Ayollar liderligi akademiyasi" loyihasi ushbu muammolarni hal qilish uchun amaliy yechim taklif etadi. Akademiya orqali ayollarning professional salohiyatini oshirish, mentorlik tizimini yaratish va jamiyat ongini o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Xalqaro standartlar asosida O'zbekistonda gender tengligini rivojlantirish uchun CEDAW konvensiyasining to'liq bajarilishi, gender yo'nalishli byudjetlash tizimini kengaytirish va ta'lim sohasida gender ta'limini rivojlantirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonni gender tengligi bo'yicha xalqaro yetakchi mamlakatlar qatoriga qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. 58-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 300-son

- qarori, 05.03.2020 y. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2020 y., 09/20/300/0302-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.
 5. UN Women. (2024). *Gender Equality and Women's Empowerment*. Available at: <https://www.unwomen.org>
 6. World Bank. (2024). *Women, Business and the Law 2024: Uzbekistan Country Assessment*. Washington: World Bank Group.
 7. UN Women Data Hub. (2024). *Uzbekistan Country Fact Sheet*. Available at: <https://data.unwomen.org/country/uzbekistan>
 8. UN Women Europe and Central Asia. (2024). *UN Women opened the office in Uzbekistan*. Press Release, May 2024.
 9. UN Women Europe and Central Asia. (2024). *European Union supports gender-responsive budgeting in Uzbekistan*. Press Release, October 2024.
 10. Government of Uzbekistan. (2022). *Sixth Periodic Report to CEDAW Committee*. CEDAW/C/UZB/6.
 11. World Bank. (2024). *Uzbekistan Country Gender Assessment 2024*. Washington: World Bank Group.
 12. UNDP Uzbekistan. (2024). *Gender Equality Programme Overview*. Available at: <https://www.undp.org/uzbekistan/gender-equality>